

2. D gipovitaminoz kasalligi buzoqlarda ishtahaning oʻzgarishi, shilliq pardalarning oqarishi, teri qoplamasi yaltiroqlikning yoʻqolishi, oshqozon oldi boʻlimlarining gipotoniyasi, oʻsish va rivojlanishdan qolish, boʻgʻinlarning kattalashishi, oxirgi dum umurtqalarning soʻrilishi kabi klinik belgilar bilan kechadi.

3. Oʻstirish yoshidagi buzoqlar D gipovitaminozi kasalligini oldini olish maqsadida 60 kun davomida ratsionga qoʻshimcha ravishda bir bosh buzoqqa bir sutkada 10 g monokalsiyfosfat, va har 7 kunda jami 4 marta 5 ml dan «Multivit plyus meniral» preparatini muskul orasiga ineksiya qilish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1.Kondraxin I.P., Levchenko V.I. Diagnostika i terapiya vnutrennix bolezney jivotnix. M.: Izd.OOO «Akvarium-Print», 2005.S.-652-664.

2.N.B.Ruzikulov «Yosh xayvonlar va parrandalar terapiyasi» Darslik. Toshkent -2021 yil.

3.Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, 2010.

4.Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Yosh xayvonlar yuqumsiz kasalliklari patologiyasi va terapiyasi. Oʻquv qoʻllanma. Samarqand, 2010.

5.Q.N.Norboyev, B.Bakirov, B.Eshburiyev. Hayvonlarda modda almashinuvi buzilishlari. Samarqand ,1996 y.

UDK:619:636.92:576.89:616

QUYON EYMERIOZI VA KOLIBAKTERIOZINING DIFFERENSAL DIAGNOSTIKASI

Xushnazarov A.X. - tayanch doktorant.

Davlatov R.B. - v.f.d.,professor.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada quyon eymeriozining rivojlanish sikllari, gematologik, patologoanatomik hamda laborator tekshirishlar natijasi bayon etilgan va eymeriozni kolibakteriozdan differensatsiyalash boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar. Chorvachilik, quyon, eymerioz, kolibakterioz, gematologik, patologoanatomik, differensatsiya.

Kirish: Oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash dolzarb vazifa hisoblangan hozirgi davr chorvachiligida quyonchilik tarmogʻini ham samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu dolzarb vazifani bajarishda chorvachilik rivoji muhim oʻrin tutib, kichik tarmoq quyonlar bosh sonini koʻpayishida ularda uchraydigan ayrim kasalliklar toʻsqinlik qilishi kuzatilib, patologik jarayonlarni oldini olish va samarali davolash usullarini joriy etish ushbu tarmoq uchun ishlab chiqarishdagi zarurat hisoblanadi. Chunki soʻnggi yillarda respublikamizda quyonlarning kasalliklari (Eymerioz va boshqalar) ilmiy izlanuvchilar tomonidan deyarli oʻrganilmagan.

Chorvachilikning kichik tarmogʻi boʻlgan quyonchilikning rivojlanishi va mahsuldorligini oshirishga ayrim yuqumli va parazitlar kasalliklar toʻsqinlik qiladi. Xususan, ular orasida yuqumli kasalliklardan kolibakterioz, parazitlar kasalliklardan eymerioz alohida oʻrin tutadi. Yirik quyonchilik xoʻjaliklarini sanoat asosida rivojlantirish jarayonida

kolibakterioz va eymerioz quyonlar orasida keng tarqalib, xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Mavzuning dolzarbligi. Eymerioz - bir hujayrali sodda parazitlar – eymeriyalar qo'zg'atadigan invazion kasallik hisoblanadi. Quyonlarda eymerioz turli klinik shakllarda kechadi. Eymerioz bilan asosan 3 oylikkacha bo'lgan quyon bolalalari og'ir kasallanadi. Kasallik murakkab patologik o'zgarishlar bilan kechganda quyonlarning hazm tizimidagi buzilishlar oqibatida ishtahadan qoladi, harakatchanligi keskin pasayib ketadi, oziqlanishi sustlashadi, ichak faoliyati buziladi (ich ketadi), ich ketishi ba'zan qon aralashgan holda kechadi, natijada quyonlar o'sishdan qoladi va o'lim holatlari kuzatiladi. Kasallikni o'z vaqtida tashxislash, differentsiatsiya qilish, davolash va oldini olishda yuqori samarador vositalarni qo'llash kasal quyonlarning ertachi sog'ayishiga imkoniyat yaratadi va iqtisodiy zararining kamayishiga ko'mak beradi. Eymeriyalarning natijasida quyonlar o'sish va rivojlanishdan orqada qolib, o'z vaznining 12 - 30% gacha qismini yo'qotadi, davolash va profilaktika tadbirlari o'tkazilmasa yosh quyonlarning o'limi 85-100% ga etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Quyon eymeriozining qo'zg'atuvchisi sistematika bo'yicha *Protozoa* hayvonot olamiga, *Apicomplexa* tipiga, *Sporozoa* sinfiga, *Coccidiida* turkumiga, *eimeriidae* oilasiga, *eimerinae* kichik oilasiga va *eimeria* avlodiga mansub. Ushbu eymeriyalar turlaridan biri *eimeria stiedae* quyon jigarida boshqa turlari *e.perforans*, *e.media*, *e. magna*, *e.irresidua* lar esa ichakda parazitlik qilib, patologik jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Barcha sporalar kabi quyon eymeriozi ham uchta taraqqiyot davrini boshdan kechiradi: 1 - davr – shizogoniya yoki jinssiz ko'p marta bo'linish yo'li bilan ko'payish; 2 - davr – gametogoniya yoki jinsiy ko'payish; 3 - davr – sporogoniya yoki jinssiz ko'payish yo'li orqali sporozoitlar hosil qilish yo'li (bir xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchilarida tashqi muhit taassurotidan himoya qiluvchi spora hosil qilish) bilan ko'payadi.

Eymeriyalarni hayvon organizmida joylashuviga bog'liq ravishda quyon eymerozining uch shakli farqlanadi: 1. Ichak, 2. Jigar, 3. Aralash shakllari. Amaliyotda invaziyaning aralash shakli muhim o'rin tutadi. Kasallikning boshlanishida quyonning ichaklari zararlanib, keyinchalik jigari invazyalanadi va natijada aralash shakl boshlanadi. Invaziyaning yashirin davridan keyin quyonchalar loxaslanadi, odatdagidek harakatchanligi yo'qolib, qornini yerga berib yotadi. Ishtahasi pasayib, ozuqa yemay qo'yadi. Qorin bo'shlig'i shishadi va og'riq beradi, axlati suyuqlashib, ba'zan shilliq va qon aralash bo'ladi. Kasal quyonlar o'sishdan qoladi, oriqlaydi, jun qoplami hurpayib turadi. Siydik ajralishi tezlashadi. Ba'zan so'lak ajralish kuchayib, burun shilliq pardasi kataral yallig'lanadi va kon'yuktivit rivojlanadi. Jigarda yallig'lanish jarayonlarini boshlanishi bilan organizm nimjonlashib, quyon tashqi muhitga e'tiborsiz bo'lib qoladi va uzoq yotadi. Ishtahasi yo'qoladi, qorni shishgan bo'lib, o'ng tomonini bosib ko'rganda og'riq sezadi. Ko'rinarli shilliq pardalari sarg'ayadi, oyoqlari va bo'yin mushaklari shol bo'lib, qaltiray boshlaydi, so'ngra esa 7-10 kunda nobud bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi. Eymerioz bilan kasallangan quyonlar klinik, patologianatomik o'zgarishlarining ayrim kasalliklardan (kolibakterioz) differentsiatsiya qilish.

Tekshirish uslublari. Tadqiqotlar davomida eksperimental, mikroskopik va statistik usullardan foydalanildi.

Gematologik tekshiruv natijalari. Eymerioz bilan zararlangan quyonlar qonining biokimyoviy va morfologik o'zgarishlari tahlil qilindi. Quyonlar eymeriozida qonning biokimyoviy va morfologik o'zgarishlarini "Gematologiya" laboratoriyasida tekshirilganda quyidagilar aniqlandi: kasallik davrida kislota-ishqor balansi buzilgan (asidoz), xlor turg'un ko'rsatgichi pasaygan (gipoxloremiya), qonda qand miqdori kamaygan. Bu ko'rsatkichlar organizmda uglevodlar almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi. Kasallik davrida eritrosit va gemoglobin miqdorlarining kamayishi yuz bergan. Shuningdek, quyonlar organizmida leykositoz holati yuzaga kelganligi aniqlandi

Patologoanatomik tekshirish. Nobud bo'lgan va kasallikka gumon qilingan quyonlarning gavdasi mutaxassislar yordamida yorib ko'rildi. Keltirilgan quyon gavdalarining tashqi ko'rinishi: Quyon gavdasi juda oriq, ko'z, og'iz shilliq qavatlari oqimtir rangda, kamqonlik (anemiya), orqa chiqaruv teshigi atrofidagi junlar qon aralash, shilimshiqsimon fekali bilan ifloslangan. Skelet muskullari oqimtir rangda, atrofiya holatida. Og'iz, tomoq, qizilo'ngach shilimshiq qavatlari oqimtir ko'k rangda. Ichki ko'rinishi: Oshqozonda kam miqdorda ozuqa bor. Ingichka ichakning zardob pardalari o'choqli qizargan, bir nechta 1-2 mm kattalikdagi yaltiroq nekroz o'choqlari hosil bo'lgan. Ichakdagi ximus yarim suyuq, oq qizg'ish rangda. Shilliq qavatlari shishgan, qizargan, chegaralangan, oqimtir rangdagi qoplamalar, ular oralig'ida shimilgan qon ko'rinadi, oqimtir o'choqlardan surtma olinib mikroskopik tekshirilganda, ko'p nusxdagi yumaloq va ovalsimon oosistalar borligi aniqlandi.

Xarakterli o'zgarishlar: ko'r ichakda kengayish, shish holati va tashqi zardob pardalari to'q qizil rangda, paypaslaganda qattiq konsistensiyali kesilgan yuzada quyuq qatlamli qon laxtalari va yemirilgan shilliq to'qimalar aniqlandi.

Jigardagi o't yo'llarida biriktiruvchi to'qimaning o'sishi hisobidan suyalsimon o'simtalar, bo'rtiqchalar ko'riladi. Jigar kapsulasida, parenxemasida ham oqimtir rangdagi yo'lsimon, chiziqchasimon bo'rtiqchalar hosil bo'lgan. Ularni kesilganda oqimtir yarim suyuq massa oqib chiqdi, tayyorlangan surtmalarni mikroskopda ko'rilganda ko'p nusxadagi eymeriyalarning oosistalari borligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari.

Epizootologiyasi; Quyon eymeriozi o'tkir va surunkali oqimda kechadi. Kasallikning o'tkir oqimda kechishida quyonlar ishtaxasi pasayadi, harakatsizlik, junlarning dag'allashuvi, ich ketishi, tashqi chiqaruv teshik atrofi va orqa oyoqlarining axlat bilan ifloslanishi, haroratning pasayishi kuzatiladi, qonda eritrosit, gemoglobin, glyukoza me'yordan kamayadi, leykositlar soni ortadi. Katta yoshdagi quyonlarda kasallik surunkali oqimda kechadi, ular kasallik tashuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Kolibakteriozida quyon harakatsiz bo'lib, kaxeziyaga uchraydi, yomon oziqlanadi yoki umuman oziqlanmaydi, ich ketishi paydo bo'ladi. Kasal quyonlar tez vazn yo'qotadi va 3-7 kundan keyin nobud bo'ladi.

Klinik belgilari; eymeriozda kasallikning yashirin davri 11-20 kun, tana haroratining 40-41 C⁰ gacha ko'tarilishi, shilliq pardalarning qonsizlanishi, ayrim hollarda rinit, konyuktivit kuzatiladi, axlati suyuqlashib, shilliq qon aralashgan holda bo'ladi. Ishtahasining pasayishi natijasida hayvon oriqlaydi.

Kolibakteriozda harakatsizlik, kaxeziya, ishtahasizlik, ich ketishi, tez oriqlash natijasida 3-7 kundan keyin nobud bo'ladi.

Patonotomik o'zgarishlar; eymeriozda hayvon tashqi ko'rinishidan oriqlagan. Orqa oyog'i va dumi axlat bilan ifloslangan, ko'rinarli shilliq pardalari oqargan, gavda yorib ko'rilganda 12 barmoq va och ichaklarning boshlanish qismining shilliq qavati shishinqiragan. Ichakning ayrim joylarida oqish-sarg'ish tusdagi, zig'ir doni kattaligidagi tugunaklar mavjud. Bu tugunaklar kesib kurilganda har xil rivojlanish bosqichlaridagi ko'p sonli eymeriya oosistalari uchraydi.

Kolibakteriozda ichak shilliq qavati giperemik, kataral yoki gemorragik yallig'langan. Yo'g'on ichak va ko'r ichakning shilliq qavati shishgan, ayrim joylari yorilgan. Ichakning shilliq qavatida va seroz to'qimalari ostida qon to'plangan. Ichakdagi massa suyuq va shilimshiq yurakda ko'pincha mushak tolalarining nekrozi uchraydi.

Xulosa va tavsiyalar. Quyonlar orasida keng tarqalgan eymerioz va kolibakterioz kasalliklariga o'z vaqtida aniq tashxis qo'yish, kasalliklarni o'zaro differentsiya qilish va samarali davolash mexanizmini ishlab chiqish juda muhim.

Quyonlar eymeriozini profilaktika qilish maqsadida quyidagi talablarga amal qilish lozim.

Quyohlarni saqlash va oziqlantirish hamda veterinariya sanitariya va zoogigiena qoidalariga rioya qilish; Yosh quyohlarni katta quyohlardan ajratib, alohida qafaslarda saqlash; Quyohlarni oqsilli, mineral va mikroelementli oziqlar bilan oziqlantirish; Eymeriozni oldini olish maqsadida eymeriostatik preparatlardan profilaktik va rejali foydalanish.

Quyohlarni axlatiga biotermik ishlav berish.

Quyohlarni tagi sim to'g'ri bo'lgan kataklarda, ochiq havoda yoki quruq binolarda saqlash lozim. To'shamalarni har kuni almashtirish, oxurlarni va suv ichadigan idishlarni qaynoq suvda yuvish maqsadga muvofiq tadbirlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Akhmadaliev, N. T., Khushnazarov, A. K., & Davlatov, R. B. (2023). EPIZOOTOLGY OF RABBIT EYMEROSIS.
2. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. X. (2022). TREATMENT AND PREVENTIVE MEASURES OF THE EPISOTOLGY OF RABBIT EMERIOSIS. *SCIENTIFIC JOURNAL OF AGROBIOTECHNOLOGY AND VETERINARY MEDICINE*, 181-184.
3. Давлатов, Р. Б., & Хушназаров, А. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗОО-ТОЛОГИЯСИ ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКА ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 181-184.
4. Давлатов, Р., & Хушназаров, А. (2022). Эпизотология эймериоза (кокцидоза) кроликов, лечение и профилактика. *in Library*, 22(4).
5. Ergashov, S. I., Khushnazarov, A. X., & Davlatov, R. B. (2023). DRUGS WIDELY USED IN THE TREATMENT OF EMERIOSIS IN RABBITS. *Journal of new century innovations*, 22(3), 58-64.
6. Khushnazarov, A. H., Rayimkulov, I. H., Eshkoraev, A. M., & Davlatov, R. B. (2023). CHEMIOPROPHYLLAXIS OF EMERIOZINING IN RABBIT. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.
7. Мухаммадиев, У. И., Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. (2023). BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RABBITS, KEEPING AND FEEDING TECHNOLOGY.
8. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Распространение и патолого-анатомическая диагностика эмериоза кроликов. *in Library*, 1(1), 15-17.
9. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. Б. (2022). Эффективность вазурила при лечении эймериоза кролика. *in Library*, 22(2), 173-174.
10. Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. (2023). HISTORY AND SYSTEMATIC STATUS OF THE STUDY OF RABBIT EYMEROSIS.
11. Хушназаров, А. Х. (2022). ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ ПО ХИМИОТЕРАПИИ И ХИМИОПРОФИЛАКТИКИ ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(2), 83-86.
12. Хушназаров, А.Х., Райимкулов, И.Х., Эшқораев, А.М., & Давлатов, Р.Б. (2023). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИ. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.